


# SIRDARYO VILOYATIDA OLIY TA’LIM TIZIMI

***Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi***

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi. Oliy ta’lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’limdir.






# Oliy ta‘lim tashkilotlari soni, birlikda
## *(2020/2021-o‘quv yili boshida)*

| | |
|---|---|
| 1 | Guliston shahar |
| 1 | Yangiyer shahar |

Siradaryo viloyatida 2 ta oliy ta'lim tashkilotlari bo'lib Guliston Davlat Universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali muassasalari faoliyat yuritmoqda. 2020/2021 o'quv yili boshiga jami 9597 nafar talabalarni tashkil qilib, shulardan 194 nafari magistraturada, 9403 nafari bakalavriat bosqichini tashkil qiladi. Umumiy sonidan asosiy qismi 4 yillik kurslarda ta'lim olmoqda.

.





## **Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari soni, ming kishi** *(2020/2021- o‘quv yili boshida)*






2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim tashkilotlarida jami 9,6 ming nafar talaba tahsil olib kelmoqda.

# Oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

*(2020/2021- o‘quv yili boshida)*






2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim tashkilotlarida jami 9,6 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 5,0 ming nafarini (52,1 % ni) qizlar va 4,6 ming nafarini erkaklar (47,9 % ni) tashkil etdi.






# Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi
*(2020/2021- o'quv yili boshiga)*




2020/2021- o'quv yili boshiga Sirdaryo viloyatida oliy ta'lim tashkilotlarida 9,6 ming nafar talaba ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 14,8 ming nafari 21 yoshni, 15,2 ming nafari 20 yoshni, 11,9 ming nafari 22 yoshni, 9,1 ming nafari 23 yoshni tashkil etmoqda.

# Oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi
*(2020/2021- o‘quv yili boshiga)*




2020/2021- o‘quv yili boshiga oliy ta’lim tashkilotlariga jami 9,6 ming nafar talaba qabul qilingan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ga oshgan. Eng ko‘p qabul qilingan talabalar Guliston shahriga to‘g‘ri kelgan.



# Oliy ta’lim tashkilotlarining pedagoglarining ilmiy darajasi bo’yicha taqsimlanishi, kishi

*(2020/2021- o‘quv yili boshiga)*

| | |
|---|---|
| Fan doktori | 34 |
| Fan nomzodi | 103 |
| Dotsentlar | 93 |
| Falsafa doktori | 11 |
| Professor | 28 |

2020/2021- o‘quv yili boshida Sirdaryoda oliy ta’lim tashkilotlarida jami 0,5 ming nafar professor-o‘qituvchilar (o‘rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 0,1 ming nafari ayollar (29,0 %) ni tashkil etsa, 0,4 ming nafari erkaklar (71,0 % ) dan iborat.

**Ijtimoiy soha statistikasi bo’lim**
**tel.: (67) 236-86-26**